“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=388

2026-yil
9-son
sentabr
ISSN 3093-8546



Islomiy moliya kengashlari va islom moliyasidan kelib chiqadigan nizolarni hal etishda ularning ahamiyati

Mirkomil Mirmaqsudov,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil tadqiqotchisi
e-mail: mirkomilmirmaqsudov@gmail.com

Аннотация. Maqolada O‘zbekistonda islomiy moliya institutlarining huquqiy asoslari, xususan, Markaziy bankning islomiy moliya kengashi hamda banklarning islomiy moliya kengashlari vakolatlari tahlil qilingan. Islom moliyasi munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolarni fuqarolik va iqtisodiy sudlarda ko‘rib chiqishda mazkur kengashlarning ekspertlik va xulosa berish vakolatlaridan foydalanish masalalari yoritilgan. Shuningdek, nizoni sudga qadar hal etish tartibida islomiy moliya kengashi xulosasining o‘rni, kengash a'zolarining sudda mutaxassis sifatida ishtirok etishi hamda islom moliyasi asosidagi majburiyatlar bo‘yicha to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonlarida ularning ishtirokiga oid takliflar ilgari surilgan. Muallif islomiy moliya kengashlarining nizolarni hal etish jarayonidagi ishtirokini takomillashtirishga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni joriy etish zarurligini asoslaydi.

Калит сўзлар. islomiy moliya, islomiy moliya kengashi, Markaziy bank, islomiy bank faoliyati, islom moliyasi standartlari, nizolarni sudga qadar hal etish

Аннотация. В статье анализируются правовые основы деятельности исламских финансовых институтов в Узбекистане, в частности полномочия Совета по исламским финансам Центрального банка и советов по исламским финансам банков. Рассматриваются вопросы использования полномочий указанных советов по подготовке заключений и предоставлению экспертных разъяснений при рассмотрении споров, вытекающих из отношений в сфере исламских финансов, в гражданских и экономических судах. Особое внимание уделяется роли заключения совета по исламским финансам в досудебном урегулировании споров, возможности участия членов советов в судебных процессах в качестве специалистов, а также их участию в процедурах неплатежеспособности должников, имеющих обязательства, возникшие на основе исламского финансирования. Автором обосновывается необходимость совершенствования правовых механизмов участия советов по исламским финансам в разрешении споров и обеспечения соответствия применяемых финансовых требований принципам исламских финансов.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Ключевые слова. исламские финансы, совет по исламским финансам, Центральный банк, исламская банковская деятельность, стандарты исламских финансов, досудебное урегулирование споров

Annotation. This article analyzes the legal framework governing Islamic finance institutions in Uzbekistan, with particular emphasis on the powers of the Islamic Finance Council of the Central Bank and Islamic Finance Councils of banks. It examines the use of the councils' powers to provide opinions and expert explanations in the resolution of disputes arising from Islamic finance relations before civil and economic courts. Particular attention is given to the role of Islamic Finance Council opinions in pre-trial dispute resolution, the participation of council members as specialists in court proceedings, and their involvement in insolvency proceedings concerning debtors whose obligations arise from Islamic financing. The article substantiates the need to improve legal mechanisms for the participation of Islamic Finance Councils in dispute resolution and to ensure that financial claims arising from Islamic finance transactions comply with the principles and standards of Islamic finance.

Keywords. Islamic finance, Islamic Finance Council, Central Bank, Islamic banking, Islamic finance standards, pre-trial dispute resolution

Yurtimizda islom moliyasidan kelib chiqadigan nizolarni sudda hal etish Iqtisodiy protsessual kodeks va Fuqarolik protsessual kodeksi bilan hal etiladi[1].

2026-yil 27-mart kuni qabul qilingan “Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga Oʻzbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish toʻgʻrisida”gi 1126-qonun bilan qonun hujjatlariga yangi huquqiy institutlar kiritildi.

Jumladan, Markaziy bankning islomiy moliya kengashi va banklarning islomiy moliya kengashlari haqida huquqiy tushunchalar shular jumlasidandir.

Ular Markaziy bankning islomiy moliya kengashi islomiy moliya standartlarini ishlab chiqadi; Islomiy moliya faoliyati boʻyicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda Markaziy bankka koʻmaklashadi; islomiy moliya sohasiga oid bahs-munozaralarga sabab boʻluvchi masalalar yuzasidan tushuntirishlar va izohlar beradi; islomiy moliya faoliyati bilan bogʻliq nizolar boʻyicha xulosalar beradi.

Banklarning islomiy moliya kengashi esa bankdagi islomiy bank faoliyati islomiy moliya standartlariga muvofiq tarzda amalga oshirilishini muvofiqlashtiruvchi kollegial organ hisoblanadi.

Uning vazifalari jumlasiga quyidagilar kiradi: bank islomiy moliya operatsiyalarining islomiy moliya standartlariga muvofiqligini ta'minlash hamda muvofiqlik bilan bogʻliq masalalar va murojaatlar boʻyicha xulosalar taqdim etib borish; islomiy moliya operatsiyalari bilan bogʻliq shartnomalar, ichki hujjatlar va hisobotlar loyihalarini koʻrib chiqish hamda ma'qullash; islomiy

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

bank faoliyati, shu jumladan islomiy moliya operatsiyalari va ular bilan bog‘liq bo‘lgan shartnomalar hamda hujjatlar bo‘yicha bank tomonidan amal qilinishi shart bo‘lgan va qonunchilik hujjatlariga zid bo‘lmagan qarorlarni qabul qilish; islomiy bank faoliyati bilan bog‘liq tavakkalchiliklarni boshqarish hamda ichki nazorat tizimini joriy etishda bankning kuzatuv kengashi va boshqaruviga xulosalari orqali ko‘maklashish.

Bankning islomiy moliya kengashi bankning ustaviga asosan boshqa vazifalarni ham bajarishi mumkin.

O’rni kelganda aytib o‘tish lozimki, amaldagi qonunchilik islomiy moliya amaliyotlari bilan shug‘ullanish uchun banklarda islomiy moliya kengashlar mavjudligini majburiy shart deb belgilasada, mikromoliya tashkilotlari uchun ushbu talablar majburiyligi nazarda tutilmagan.

Shu sababli, kelgusida mikromoliya tashkilotlari o‘z huzurida yoki autsorsing shartnomasi asosida islomiy kengashlar xizmatidan foydalanishni majburiy qoidani qonunchilikka kiritish taklif etiladi.

O‘z navbatida islomiy moliya kengashlari islom moliyasidan kelib chiqadigan nizolarni hal etishda o‘ziga xos “ko‘makchi” bo‘la oladi.

Jumladan, o‘zlarini “islom moliyasiga asoslangan” lizing ximatlarini ko‘rsatuvchi deya targ‘ib etayotgan ayrim tijorat tashkilotlari sudlarga da’vo ariza bilan murojaat qilishda da’vo talablariga asosiy qarz bilan birga penya, bank foizi, boy berilgan foyda summalarini ham qo‘shmoqda[2].

Bu esa islom moliyasining asosiy tamoyillariga ziddir. Iqtisodiy protsessual va fuqarolik protsessual qonunchilikda nizoni sudgacha hal etish huquqiy instituti mavjud. Ushbu qoidalarga rioya etmasdan sudlarga murojaat qilish murojaatning qaytarilishiga yoki kelgusida ko‘rmasdan qoldirilishiga olib keladi.

Iqtisodiy protsessual kodeksning 107-moddasi yettinchi bandi, 141-moddasi birinchi qismi yettinchi bandi, 148-moddasi ikkinchi qismi, 155-moddasi birinchi qismi yettinchi bandi hamda Fuqarolik protsessual kodeksining 122-moddasi o‘ninchi bandi, 176-moddasi birinchi qismi ikkinchi bandi, 195-moddasi birinchi qismi to‘rtinchi bandlarida yuqoridagi qoidalar aksini topgan.

Shu sababli islom moliyasidan kelib chiqadigan nizolarni hal etish uchun fuqarolik va iqtisodiy sudlarga murojaat qilishda islomiy moliya kengashlarning (tashkilotning yoki autsorsing shartnomasi asosida jalb etilgan) da’vo arizaning shariat qoidalariga mosligi haqidagi xulosasini ilova qilish haqida qoida kiritish; ushbu qoidaga rioya etmaslik nizoni sudgacha hak etish tartibiga rioya etmaslik tarzida baholanishi haqidagi huquqiy me’yorlarni kiritish taklif etiladi.

Iqtisodiy protsessual kodeksning 57-moddasi birinchi qimiga ko‘ra, maslahatlar (tushuntirishlar) berish va ilmiy-texnika vositalarini qo‘llashda yordam ko‘rsatish yo‘li bilan dalillarni to‘plash, tekshirish va baholashda ko‘maklashish maqsadida fan, texnika, san'at yoki hunar sohasida maxsus bilim va malakaga ega

boʻlgan, voyaga yetgan, ish natijasidan manfaatdor boʻlmagan shaxs sud majlisida yoki protsessual harakatlarda ishtirok etish uchun sud tomonidan mutaxassis sifatida jalb qilinishi mumkin. Fuqarolik protsessual kodeksining 61-moddasi birinchi qismi ham shu mazmunda boʻlib, fuqarolik sudlarida mutaxassis ishtirokiga oiddir.

Oʻz navbatida islomiy kengash a’zolari sudlarda mutaxassis tarzida ishtirok etishi mumkin va banklardagi islomiy kengash a’zolari viloyat, tumanlararo (shahar) sudlarida mutaxassis sifatida ishtirok etishi hamda Markaziy bank islomiy kengashi a’zolari esa faqat Oliy sudda mutaxassis sifatida ishtirok etishi haqidagi qoida joriy etilsa, turli sansalorliklarning oldi olingan boʻladi.

Iqtisodiy protsessual kodeksning 210-moddasiga muvofiq yuridik va jismoniy shaxslarning, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlarning toʻlovga qobiliyatsizligi toʻgʻrisidagi ishlar ushbu kodeksda nazarda tutilgan qoidalar boʻyicha, “Toʻlovga qobiliyatsizlik toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi qonunida belgilangan oʻziga xos xususiyatlar e'tiborga olingan holda sud tomonidan koʻrib chiqiladi.

Sir emaski, bugunga kunda toʻlovga qobiliyatsizlikka doir ishlar soni oshib bormoqda va toʻlovga qobiliyatsizlik jarayonida kreditor sifatida ishtirok etayotgan bank, moliya tashkilotlari soni ham oz emas.

“Toʻlovga qobiliyatsizlik toʻgʻrisida”gi qonunda kreditorlarning huquqlari bilan birga ushbu huquqlarni amalga oshirish mexanizmlari ham aksini topgan.

Jumladan, kreditor oʻz huquqlarini roʻyobga chiqarish yoʻlida kreditorlar yigʻilishlarida ishtirok etish, yigʻilishlarda ovoz berish, sud boshqaruvchisiga murojaat qilish, sudga murojaat qilish kabi harakatlarni amalga oshiradi.

Oʻz navbatida toʻlovga qobiliyatsizlikka oid jarayonlarda islom moliyasi asosida mablagʻ yoki mol-mulk olgan qarzdorlar ham amaliyotda uchramoqda.

Kreditorlar yigʻilishida ovoz berish yoki ariza bilan sud boshqaruvchisiga yoxud sudga va tegishli idoralarga murojaat qilish jarayonlarida shariat qoidalariga zid holatlar ushrab qoladi.

Misol uchun, “Toʻlovga qobiliyatsizlik toʻgʻrisida”gi qonunning 87-moddasi birinchi qismiga muvofiq kreditorlarning birinchi yigʻilishida ishtirok etish uchun qarzdorga nisbatan kuzatuv tartib-taomili joriy etilganligi toʻgʻrisidagi axborot ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan paytdan e'tiboran oʻttiz kun ichida kreditorlar oʻz talablarini qarzdorga taqdim etishga haqli. Kreditorlarning talablari kreditorlar tomonidan sud hujjatini yoki ushbu talablarning asosliligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlarni ilova qilgan holda sudga, qarzdorga va muvaqqat boshqaruvchiga yuboriladi.

Ushbu holatda islom moliyasi qoidalari talablariga zid, biroq amaldagi qonunchilik doirasida boʻlgan ayrim mablagʻlar (penya, bank foizi, jarima, boy berilgan foyda va h.) kreditorlar reestriga

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

kiritilishi mumkin.

Shu sababli, bizning fikrimizcha islom moliyasiga asoslangan molyalashtirishga ega boʻlgan qarzdorning toʻlovga qobiliyatsizlik jarayonlarida ham islomiy moliya kengashlar faol ishtirok etishi lozim boʻladi.

Ushbu sohada Malayziya davlatining tajribasiga e’tibor qaratadigan boʻlsak, ushbu davlatda nafaqat davlat sudlari, balki nodavlat (hakamlik) sudlarining ham Markaziy bank huzuridagi islomiy kengashga murojaat etish huquqi amaliyoti keng tarqalgan[3].

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, islom moliyasidan kelib chiqadigan nizolarni hal etishda islomiy moliya kengashlarning faol ishtiroki mzkur toifadagi ishlarni koʻrishda qonuniylikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bu haqida toʻliqroq ma’lumot ushun qarang: M. Mirmaqsudov “Islom moliyasidan kelib chiqadigan nizolarni Oʻzbekiston Respublikasida hal etilishining huquqiy asoslari”, Odil sudlov jurnali, 2024-yil, 5-son, 35-38-betlar

2. Toʻliqroq ma’lumot uchun qarang: М. Мирмақсудов “Ислом молиясидан келиб чиқадиган айрим низоларни давлат судларида ҳал этиш бўйича Ўзбекистон Республикаси амалиёти”, “Одил судлов” журнали 2025 йил 10-сон, 39-43-бетлар

3. Toʻliqroq ma’lumot uchun qarang: M. Mirmaqsudov. “Ayrim xorijiy davlatlarda islom moliyasidan kellib chiqadigan nizolarni hal etilishi”, Odil sudlov (elektron jurnal), 2024-yil 11-son, 71-78-betlar.